



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 30.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

DMITRIY SHOSTAKOVICH “24 PREBUDIYA VA FUGA” TURKUMI

Po`latjonova Ominaxon

Andijon davlat universiteti “Sport va San`at” fakulteti Xalq cholg`u ijrochiligi

Uzbekistan

adu@edu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning eng yirik sovet bastakori Dmitriy Shostakovich hayoti, ijodi, asarlari va siyosiy davr bilan munosabati yoritilgan. Maqola bastakorning musiqiy merosi -15 simfoniya, kamer musiqasi, operalar va kino musiqalari orqali insoniy ruh, siyosiy bosim va ijtimoiy haqiqatlar qanday ifodalanganini tahlil qiladi. Shostakovich ijodi uning ichki kurashi va san`at orqali o`z fikrini bildirishga uringan jasoratli shaxs sifatidagi holatini aks ettiradi. Maqolada bastakorning tarixiy – biografik yo`li, ijodiy shakllanishi, svet davridagi siyosiy bosimlar ostidagi hayoti, uning shaxsiyati va ijodi orasidagi. Xususan, 5, 7, va 10 - simfoniylarining siyosiy va falsafiy mazmuni, “Ledi Makbet Mtsensk uezdidan” operasining sezura bilan to`qnashuvi, torli kvartetlardagi ichki kechinmalar musiqiy tahlil orqali ochib beriladi. Uning ijodida mavjud bo`lgan “ ikki qatlamlilik” - ya`ni rasmiy ramzlar va yashirin norozilik, ironik – parodik uslublar, musiqiy kodlar orqali berilgan tanqidiy qarashlar tushuntiriladi. Maqolada, shuningdek, Shostakovichning Sovet ideologiyasi bilan ziddiyatlik munosabati, rasmiy tanqid va e`tirof otrasidagi qarama- qarshiliklar, ijtimoiy ruh va insoniy fojialarining musiqadagi ifodasi alohida tahlil qilinadi. Bastakorning shaxsiy hayoti va tarixiy davr voqealari bilan ijod qanday uyg`unlashgani ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: simfoniya, shaxs va ijod, musiqiy modernizim, estetik qarashlar, musiqiy ekspressionizm, bastakor psixologiyasi, stalin davri sanʼati, musiqiy ironiyalik, torli kvartetlar, dramatism.

Аннотация: В статье рассматриваются жизнь, творчество и произведения Дмитрия Шостаковича, величайшего советского композитора XX века. Подчеркивается его связь с политической эпохой. В статье анализируется, как музыкальное наследие композитора — 15 симфоний, камерная музыка, оперы и музыка к фильмам — выражает человеческий дух, политическое угнетение и социальные реалии. Творчество Шостаковича отражает его внутреннюю борьбу и его статус смелой личности, стремившейся выразить свои мысли через искусство. В статье рассматривается историко-биографический путь композитора, его творческое становление, жизнь в условиях политического давления в светскую эпоху, а также взаимосвязь его личности и творчества. В частности, посредством музыкального анализа раскрывается политическое и философское содержание 5-й, 7-й и 10-й симфоний, столкновение с цезурой оперы «Леди Макбет Мценского уезда», внутренние переживания в струнных квартетах. Объясняется «двойная слоистость» его творчества — официальная символика и скрытый протест, иронически-пародийные стили и критические взгляды, выраженные посредством музыкальных кодов. В статье также отдельно анализируются противоречивые отношения Шостаковича с советской идеологией, противоречия между официальной критикой и признанием, а также выражение общественного духа и человеческих трагедий в музыке. Показано, как личная жизнь и творчество композитора переплетаются с событиями исторического периода.

Ключевые слова: симфония, личность и творчество, музыкальный модернизм, эстетические взгляды, музыкальный экспрессионизм, композиторская психология, искусство сталинской эпохи, музыкальная ирония, струнные квартеты, драматизм.

Abstract: This article examines the life, work, works and political era of the greatest Soviet composer of the 20th century, Dmitry Shostakovich. The article analyzes how the composer's musical heritage - 15 symphonies, chamber music, operas and film music - expresses the human spirit, political pressure and social realities. Shostakovich's work reflects his inner struggle and his status as a courageous person who tried to express his opinion through art. The article examines the composer's historical and biographical path, creative formation, life under political pressure during the Soviet era, the relationship between his personality and work. In particular, the political and philosophical content of the 5th, 7th and 10th symphonies, the clash of the opera "Lady Macbeth of Mtsensk" with the caesura, and the inner experiences in the string quartets are revealed through musical analysis. The "double layer" of his work - official symbols and hidden discontent, ironic-parodic styles, critical views expressed through musical codes - are explained. The article also separately analyzes Shostakovich's conflicting relationship with Soviet ideology, the contradictions between official criticism and recognition, the expression of social spirit and human

tragedies in music. It reveals how the composer's personal life and the events of the historical period are combined with his work.

Keywords: symphony, personality and creativity, musical modernism, aesthetic views, musical expressionism, composer psychology, art of the Stalin era, musical irony, string quartets, dramatism.

Language: Uzbek

Citation: Po`latjonova , O. (2025). DMITRY SHOSTAKOVICH'S SERIES OF "24 PRELUDES AND FUGAS". Universal International Scientific Journal, 2(4), 299–302. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1754>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15351717>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Dmitriy Shostakovich (1906-1975) - XX asr san`atining jahon musiqa san`atining eng yirik namoyandalardan biri bo`lib, o`zining boy, murakkab va ko`p qirrali ijodi bilan musiqiy tafakkur taraqqiyotiga ulkam hissa qo`shgan bastakordir. U sovet ittifoqi tarixining siyosiy jihatidan eng keskin va tahlikali davrida ijod qilgan, va aynan shu muhitda shakllangan ijodi uning musiqasiga chuqur mazmun, dramatism va falsafiy teranlik baxsh etgan. Shostakovich faqat bastakor emas, balki zamonasining guvohi, jamiyatdagi voqealikalarni ichki ruhiy tajriba orqali musiqiy tilda ifodalangan. Shostakovich hayoti davomida siyosiy bosim, senzura, repressiyalar, urush fojiasi va mafkuraviy qarama- qarshiliklarga duch kelgan. U sovet mafkurasi talablariga tashqi jihatdan bo`ysungan bo`lsa-da, uning musiqasi ko`pincha mazmun – satira, norozilik, tanqid va dard bilan yo`g`rilgan edi. Ayan shu jihatlar asarlarini ikki qavatli – ya`ni rasmiy ko`rinish mazmunga ega

bo`lgan san`at namunalari ga aylantirilgan. Shostakovich o`z asarlarida inson ruhining ezilishi, adolat va erkinlik uchun ichki kurashni, jamiyatdagi yolg`on va haqiqat o`rtasidagi ziddiyatlarni musiqiy obrazlar orqali gavdalantirdi.

ASOSIY QISM

Dmitriy Shostakovich 1906- yil 25-sentyabrda Sankt-Peterburgda ziyoli oilada tug`ilgan. Musiqaga bo`lgan qiziqishi erta yoshligidanoq sezila boshlagan. U 13 yoshida Petrograd konservatoriyasiga kirib, Aleksandr Glazunov, Leonid Nikolayev kabi taniqli ustozlardan tehsil olgan. Dastlabki yillarda Shostakovich musiqaga eksperimental, modernistik yondashgan bo`la-da, keyinchalik Sovet mafkurasi ta`siri ostida rasmiy talablar bilan hisoblashishga majbur bo`lgan. Shostakovichning hayoti davomida Sovet siyosati bilan munosabatlari ziddiyatli bo`lgan. 1936 – yilda “ Ledi Makbet Mtsensk uezdidan “ operasi rasmiy gazeta “ Pravda “ da tanqid qilinib, “ Musiqaviy shovqin “ deb baholandi .

Shostakovich 15 ta simfoniya muallifi bo`lib, ular orasida ba`zilari nafaqat musiqa tarixida, balki jahon madaniyati rivojida muhim o`rin egallaydi. Xususan :

5- simfoniya (1937): Bu asar “ musiqiy o`z-o`zini tozalash” sifatida baholangan bo`lsa-da, aslida unda iztirob, qo`rqov va norozilik satira orqali berilgan.

7- simfoniya (“Leningrad”): ikkinchi jahon urishi davrida yozilgan ushbu asar G`arb va Sharqda mashhur bo`lib, Shostakovichni xalq qahramoni sifatida ko`rsatgan.

10- simfoniya: Stalin vafotidan so`ng yozilgan bu asar bastakorning ichki ozodligini ifodalagan, unda Stalinning obraziga tanqidiyyondashuv mavjud.

Shostakovichning 15 torli kvarteti uning eng shaxsiy va chuqur asarlari hisoblanadi. Har bir kvartetda bastakor o`z ichiga ruhiy holatini, zamon voqealariga bo`lgan munosabatini o`zgaruvchan siyosiy manzara fonida kechayotgan kechinmalarini musiqiy tilda ifodalaydi. Ayniqsa, 8 – kvartet (1960) bastakorning o`z-o`zini yo`q qilish istagini va ichki iztirobni ifodalagan.

“Ledi Makbet Mtsensk uездidan” operasi Shostakovichning eng jasoratli asarlaridan biridir. Bu asarda ijtimoiy nohaqlik, ayol fojiasi zo`ravonlik mavzusi ochiq ifodalangan. Operaning

realizimga moyilligi va drammatizm unI Sovet mafkurasiga zid qilib qo`ygan. Shuningdek, bastakor ko`plab vocal – simfoniya asarlar, xorlarga yozilgan kantatalar hamda romanslar yaratgan .

Shostakovich 1950- yilda Germaniyada Bax xotirasiga bag`ishlangan xalqaro festivalda qatnashadi va bus afar uning ijodiga katta ta`sir ko`rsatadi. Aynan shu yerda o`zining 24 tonallik preludiya va fugalar turkumini yaratishga ilhom oladi. U 1950 – 1951 yillarda bu ulkan turkumni yozib tugatadi. Har bir preludiya va fuga bir hil tonalikda yozilgan bo`lib ularning barchasi xromatik tartibda joylashtirilgan. Shostakovich fugalarni yaratishda klassik usullar – ekspozitsiya, epizod, stretta va invertsiyalarda foydalangan, biroq ularni zamonaviylik ohangdorlik, dissonans va garmonik erkinlik bilan boyitgan.

Xulosa

Shostakovichning “ 24 preludiya va fuga “ turkumi – bu shunchaki texnik mashqlar emas, balki insoniyat ruhining musiqadagi ifodasi vaqt va makonni bog`lovchi musiqiy ko`prikdir Bu asarlar to`plami orqali Shostakovich o`zining musiqiy mahorati, falsafiy qarashlari va tarixiy ongini yuksak darajada namoyon qilgan. Uning bu turkumi zamonaviy musiqaning yuksak cho`qqilaridan biri sifatida e`tirof etilishi bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayziyev ,A . (2012) XX asr bastakorlari va ularning ijodi.
2. Taruskin, R. (2005) The Oxford History of Western Music : Music in the Late Twentieth Century. Oxford University Press.
3. Kulagina , I. (1981) Polifoniyaning asosiy masalalari va Shostakovich fuga san`ati.
4. Brown , M. (2004) A Shostakovich Casebook. Bloomington: Indiana University Press